



THE CAUSES AND CONSEQUENCES OF THE BORDER DISPUTE BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE REPUBLIC OF TAJIKISTAN

J. I. Abdullayev

Lecturer

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Denov, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, uzbek ssr, tajik assr, Bukharan people's soviet republic, eastern bukhara, gorno-badakhshan, pan-turkism, national-territorial delimitation, border, territory.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: Diplomatic relations between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Tajikistan were established in 1991, following the independence of both nations. However, the development of diplomatic relations between the two countries has faced several challenges, one of which is the issue of border disputes. This article examines the causes and consequences of the border problems between the two nations. The fragmentation of the Turkistan region, resulting from the national-territorial delimitation policy implemented by the Soviet government, led to the emergence of various ethnic groups and states of different sizes in the region.

O'ZBEKISTON VA TOJIKISTON RESPUBLIKALARI O'RTASIDAGI CHEGARAVIY MUAMMONING SABAB VA OQIBATLARI

J. I. Abdullayev

o'qituvchi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Denov, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, O'zbekiston SSR, Tojikiston ASSR, BXSr, Sharqiy Buxoro, Tog'li Badaxshon, panturkizim, Milliy-hududiy chegaralanish, chegara, hudud

Annotatsiya: O'zbekiston va Tojikiston respublikalari o'rtasidagi mustaqil diplomatik munosabatlar 1991 yilda ya'ni ikki mamlakat mustaqilligidan so'ng yo'lga qo'yildi. Mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning rivojlanishida bir qator muammolar mavjud bo'lib, shulardan biri chegaraviy muammolar. Ushbu maqolada ikki mamlakatning chegaraviy muammolarning

sabab va oqibatlari bayon qilingan. SSSR hukumati tomonidan amalga oshirilgan Milliy-hududiy chegaralanish siyosati natijasida Turkiston o'lkasining parchalanishi mintaqada turli katta-kichik etnik guruhlar va davlatlar vujudga keldi.

ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ ПОГРАНИЧНОГО СПОРА МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РЕСПУБЛИКОЙ ТАДЖИКИСТАН

Дж. И. Абдуллаев

Преподаватель

Институт предпринимательства и педагогики Денова

Денов, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, Узбекская ССР, Таджикская АССР, Бухарская Народная Советская Республика, Восточная Бухара, Горно-Бадахшан, пантюркизм, национально-территориальное размежевание, граница, территория.

Аннотация: Дипломатические отношения между Республикой Узбекистан и Республикой Таджикистан были установлены в 1991 году после обретения независимости обеими странами. Однако развитие дипломатических отношений между двумя государствами столкнулось с рядом трудностей, одной из которых является проблема пограничных споров. В данной статье рассматриваются причины и последствия пограничных проблем между двумя странами. Разделение Туркестанского региона, вызванное политикой национально-территориального размежевания, проведенной советским правительством, привело к появлению различных этнических групп и государств разного размера в регионе.

KIRISH

Markaziy Osiyoning muhim burilish nuqtasida joylashgan ikki qo'shni O'zbekiston va Tojikiston respublikalari orasidagi munosabatlar davrini 2 bosqichga bo'lib o'rganish lozim. Avvalo, ikki qardosh millat – o'zbek va tojik xalqlari orasidagi munosabatlar bugunning yoki kechaning dolzarb masalasi emas. Bu aloqalar bir necha yuz yillarga borib taqaladi. Ikki xalq orasidagi davlatchilik masalasi va chegaraviy munosabatlarni o'rganishda bu jihatlarga e'tibor bermaslikning iloji yo'q. Tojikiston va O'zbekiston o'z xalqlarining an'anaviy madaniyati va turmush tarzi xususiyatiga ko'ra Markaziy Osiyoning bir-biriga eng yaqin respublikalari hisoblanadi. Sovet hokimiyati yillarida Tojikistonning mintaqadagi eng yaqin iqtisodiy aloqalari O'zbekiston bilan bo'lgan. Uning hududi orqali Tojikistonning janubiy va markaziy tumanlari bilan respublikaning shimoliy viloyatlari o'rtasida yer usti aloqasi taxminan noyabr oyining

ikkinchi yarmidan aprel oyining oxiri – may oyining boshigacha, baland tog‘ dovonlari yopilgan paytgacha amalga oshirilgan. Uning hududi orqali respublikaning keng Sovet makoniga kirishi ta‘minlangandi. Rasmiy nuqtai nazardan qaraganda, SSSR dan keyin ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar bundan yaxshi bo‘lishi mumkin emas edi. Tojikiston davlati rahbari matbuot xizmati xabariga ko‘ra, ikki mamlakat orasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 22-oktabrda o‘rnatilgan[10]. 1995-yilda Toshkentda Tojikiston Respublikasining elchixonasi ish boshladi[7]. Aslida, ikki mamlakat orasidagi munosabatlar murakkab kechishi kutilmagan edi. Ammo, keyinchalik ikki mamlakat orasidagi kuchli ziddiyatlar ham vujudga kelgani sir emas.

Ikki mamlakat chegaraviy muammolari haqida ma‘lumot berishdan oldin, munosabatlarni yaqqol aks ettirgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarga e‘tibor qaratamiz: 2000- yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayriboshlash 500 million dollarga teng bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2007-yilda 300 million dollarga kamaygan, 2014-yil sentabriga kelib 2,1 million dollarga tushib ketgan. Bu haqda 2014-yil 11-sentabr kuni ikki mamlakat prezidentlarining uchrashuvdan so‘ng aytilgan edi. Umuman olganda ikki qo‘shni davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar 2015-yilga kelib amalda barham topdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan so‘ng nisbatan uzoq vaqt davomida O‘zbekiston Tojikistonning asosiy savdo sherigi bo‘lganini vaziyatning qanchalik murakkab kechganida aniqlash oson. Tojikiston mustaqillikka erishish arafasida (1990 yil fevralidan) respublikada oliy hokimiyat uchun kurashda turli mintaqaviy siyosiy elitalar o‘rtasidagi siyosiy qarama-qarshilik natijasida parokandalik boshlandi. Bu esa 1990- yil fevral oyida birinchi marta hokimiyat uchun ochiq siyosiy kurashga olib keldi.

SSSR paydo bo‘lganidan keyingi 3-4 yil davomida Turkiston mintaqasi faol ravishda milliy va etnik xarakterdagi respublikalar bilan taqsimlana boshlandi[11]. Bu davrda tojik davlatchiligi ana shu keskin reformatsiya fonida tashkil qilingan kutilmagan islohotlarning bir namunasi sifatida tarixda muhrlandi. Turkistonda amirlik qulagan onlarda tashkil topgan faol turkiy tilli tashkilotlar fonida “Tojik” xalqi Sharqiy Buxoroning eng chekka qishloqlaridagi aholi sifatida ta‘riflandi. Faqatgina Tojikiston tashkil topgandan keyingina bazi forsiyzabon ziyolilar o‘shanga o‘xshagan guruhlardan, misol uchun chig‘atoychilik harakatidan ajrala boshladi, yangi tojik ziyolilari esa kattaroq milliy respublika va tojik tiliga kengroq huquqiy maqom berilishini talab qildi [1].

MATERIAL VA TADQIQOT USULLARI

Ushbu tadqiqotni olib borish jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, taqqoslash, tizimli tahlil va davriy izchilik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

O'zbekiston va Tojikiston respublikalari o'rtasidagi chegaraviy muammolarning sabab va oqibatlari haqidagi ma'lumotlar mahalliy va xorijiy asarlar, ilmiy maqola va ayrim tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Xususan, Sh.Hayitov, Anvar Safari, Adib Xolid, M.Shushkova, R.Massov, Skott Levi, Gerhard Doerfer, A.Haugen, A.Muxiddinov, Sh.Sa'diyev, Muhammadjon Shakuriy, Z.Saidov kabi tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarni kiritish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan Milliy-hududiy chegaralanish siyosatining sabablari, shuningdek, mintaqadagi davlatlar O'zbekiston va Tojikiston respublikalari o'rtasidagi chegaraviy muammolarning sabab va oqibatlari tadqiq etilgan. Ammo ayrim tadqiqotchilar asarlarida masalaga bir tomonlama yondashuvlar bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

O'zbekiston va Tojikiston o'z legitimligini mintqa tarixining olis davrlari (puchmoqlari)dan qidirishga harakat qilib keladi. O'zini turkiylar ummonida oriylar mash'alasini saqllovchi, himoyachi deb bilgan tojik ziyolilari fors madaniyatining qadimiy markazlari O'zbekistonga tegishli ekanidan ranjigandek go'yo. Ular buning uchun aybni 1920-yillarda millat manfaatini himoya qilolmagan tojik ziyolilari hamda tojik haq-huquqlarini cheklagan «o'zbek panturkist shovinistlari»dan ko'rib, milliy-hududiy chegaralanish boshidan tojiklarga qarshi bo'lganini iddao qiladilar. Ayniqsa tojik ziyolilaridan Rahim Masov bu borada juda faol faoliyat olib bordi [1].

Qadimdan Movarounnahr o'lkasining forsiyzabon aholisi mintaqaning turli shahar va qishloqlarida yashagan va umumiy bir millat sifatida ko'rilmagan. 1925-yildagi hududiy chegaralanish vaqtida "tojik" millatini tuzish masalasi muhokamaga sabab bo'ldi. Ayrim tadqiqotchilar fikricha forsiylarda hech qachon milliy birlik tushunchalari mavjud bo'lmagan[3]. Forsiyzabon va turkiyzabon aholi chambarchas bir-biriga bog'lanib ketgan, bir xil urf-odatga ega bo'lib, ikki tilda bemalol so'zlashgan, til hech qachon o'zlik alomati sanalmagan[2]. Turkiston avtonomiyasini tasdiqlagan Politbyuroning 1920-yildagi qarorida ham Turkistonning mahalliy aholisi o'zbek, qozoq va turkmanlardan iborat ekanligi ta'kidlanib, tojiklar umuman tilga olinmagan. Deyarli barcha forsiyzabon arboblari turkchilik masalasida birdam edilar. Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixidagi eng muhim lahza 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanishdir. Turkiston Respublikasi hududida Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalari (sobiq Xiva xonligi va Buxoro amirligi) tarkibidan Turkmaniston SSR va O'zbekiston SSR tuzildi. Tojikiston ASSR bu vaziyatda O'zbekistonning tarkibida avtonom viloyat sifatida tuzildi[12]. Markazi Dushanbe shahri bo'lgan Tojikiston Avtonom Sovet

Sotsialistik Respublikasi tarkibiga asosan Fargʻona vodiysida joylashgan Turkiston oʻlkasining 12 volosti, shuningdek, Sharqiy Buxoro va deyarli butun Pomir kirgan. 1924-yil 27-noyabrda SSSR Markaziy Ijroiya Qoʻmitasining ikkinchi sessiyasi Oʻzbekiston SSR tarkibida Avtonom Tojikiston SSRni tashkil etish toʻgʻrisidagi qarorni tasdiqladi. Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibiga Turkiston ASSRning Samarqand viloyatining Samarqand va Xoʻjand okruglarining 12 volosti (Samarqand va Xoʻjandsiz) hamda Buxoro SSRning deyarli butun sharqiy qismi (Gʻarm, Hisor, Koʻlob viloyatlari bilan) Qoʻrgʻon-Tyubin va Sari-Assiysk viloyatlarining bir qismi) bilan kirgan. SSSR Markaziy Ijroiya Qoʻmitasining 1925-yil 2-yanvardagi qarori bilan Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibida markazi Xorugʻ shahrida boʻlgan Muxtor Togʻli Badaxshon viloyati tashkil etildi. 1925-yil 15-martda Dushanbe qishlogʻida boʻlib oʻtgan tantanali yigʻilishda “Ozod avtonom Tojikiston tashkil etish toʻgʻrisida deklaratsiya” eʼlon qilindi. 1926-yil 1-dekabrda Dushanbe shahrida Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi Sovetlarining I taʼsis qurultoyi boʻlib oʻtdi, u 1926-yil 1-dekabrda Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi va uning Oʻzbekiston SSR tarkibiga kirishi toʻgʻrisida deklaratsiyani qabul qildi. Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibiga bitta avtonom va 6 maʼmuriy hudud (viloyat) kirdi: Oʻratepa viloyati shimolda. Penjikent viloyati shimoli-gʻarbda. Markazda Dushanbe viloyati joylashgan (1926 yilda Hisor viloyati deb oʻzgartirilgan). Gʻarm viloyati markaziy qismida joylashgan. Qoʻrgʻon-tepa viloyati janubi-gʻarbda. Koʻlob viloyati janubi-sharqda. Sharqda Togʻli Badaxshon avtonom viloyati [5].

1929-yilda Dushanbe Stalinobod deb nomlandi va shu yilning oʻrtalarida barcha viloyatlar tumanlarga aylantirildi. 1929-yil 10-mayda Oʻzbekiston SSR Sovetlarining III qurultoyi qarori bilan Xoʻjand tumani Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibiga oʻtkazildi (haqiqiy oʻtkazish 1929-yil oktabrda yakunlangan). 1929 yil 12 iyunda SSSR Markaziy Ijroiya Qoʻmitasi oʻz qarori bilan Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasini Tojikiston SSRga aylantirdi va u 1929 yil 5 dekabrda bevosita SSSR tarkibiga kirdi. 1930 yil boshida Oʻra Tepa tumani Tojikiston SSRning Xoʻjand tumani tarkibiga kirdi; 1930 yil 30 iyulda Hisor va Penjikent tumanlari ham tugatildi. Shunday qilib, respublikada 4 ta tuman (Gʻarm, Koʻlob, Qoʻrgʻontepa, Xoʻjand) va Muxtor Togʻli Badaxshon viloyati qoldi [6].

1931-yil 1-oktabrda qolgan okruglar tugatilib, ularning tarkibiga kirgan barcha tumanlar keyingi yetti-sakkiz yil davomida respublika boʻysunishiga oʻtdi. 1938-yil 16-martda Tojikiston SSR hududining bir qismida 1939-yil oktabrgacha mavjud boʻlgan Gʻarm, Koʻlob va Leninobod tumanlari qayta tashkil etildi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1939-yil 27-oktabrdagi Farmoni bilan Tojikiston SSRning butun hududi (AGBodan tashqari) 4 ta viloyatga boʻlingan: Stalinobod

viloyati — janubi-gʻarbda (sobiq Dushabne va Qoʻrgʻontepa viloyatlari hududi); Leninobod viloyati — shimolda (sobiq Oʻratepa va Panjikent viloyatlari hamda Xoʻjand tumani hududi); Koʻlob viloyati — janubda (sobiq Koʻlob viloyati hududi); Gʻarm viloyati markazda (sobiq Gʻarm viloyati hududi).

1941 yil dekabrda AGBO Togʻli Badaxshon avtonom viloyati (GBAO) deb oʻzgartirildi. 1944-yil 7-yanvarda Stalinobod va Koʻlob viloyatlarining bir qismidan Qoʻrgʻon-tepa viloyati tuzildi. 1945 yil 19 yanvarda Leninobod viloyatining janubiy viloyatlaridan Oʻratepa viloyati tashkil etildi. Biroq 1947-yil 27-yanvarda har ikkala yangi tashkil etilgan viloyat tugatilib, ularning tumanlari mos ravishda Stalinobod, Koʻlob va Leninobod viloyatlariga qaytarildi. 1951-yil 10-aprelda Stalinobod viloyati tugatildi, uning maʼmuriy tumanlari bevosita respublika boʻysunishiga oʻtdi. Shu bilan birga, Gʻarm viloyatining markazi Gʻarm shahridan Navobod shahriga (hozirgi shaharcha) koʻchirildi. 1955-1962 yillarda Tojikiston SSR viloyat boʻlimi (GBAO bundan mustasno) tugatildi: 1955 yil 24 avgustda Koʻlob va Gʻarm viloyatlari, 1962 yil 28 martda esa Leninobod viloyati tugatildi. Shu bilan birga, sobiq Gʻarm viloyatining Qalʼai-Xumb hududi GBAOga oʻtkazildi. Tugatilgan viloyatlarning maʼmuriy tumanlari bevosita respublika boʻysunishiga oʻtdi. 1961 yilda Tojikiston poytaxti oʻzining tarixiy nomi — Dushanbega qaytarildi.

Tojikistonda ikkinchi viloyatlar 1970-yillarda tashkil topgan: 1970-yil 23-dekabrda Leninobod viloyati, 1973-yil 29-dekabrda Koʻlob viloyati, 1977-yil aprelda Qoʻrgʻontepa viloyati oʻzining oldingi chegaralarigacha tiklandi. 1987-yilda Tojikiston SSR 1 avtonom okrug, 3 viloyat, respublikaga qarashli 8 tuman va respublikaga qarashli 5 shaharga (Dushanbe, Nurek, Orjonikidzeobod [hozirgi Vaxdat], Rogʻun, Tursunzoda) boʻlindi. 1988-yil sentabrda Koʻlob va Qoʻrgʻontepa viloyatlari tugatilib, ularning oʻrnida markazi Qoʻrgʻontepa boʻlgan yangi Xatlon viloyati tashkil etildi, uning tarkibiga Nurek shahri ham kirdi. 1991-yil 26-fevralda Tojikiston SSR Oliy Kengashining 246-sonli qarori bilan Leninobod shahri oʻzining tarixiy nomi — Xoʻjandga qaytarildi. Viloyat oʻzining sovet nomini saqlab qoldi[9].

Muxtor respublika tashkil topishining asosiy sabablaridan biri markaziy hukumatning xalqlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilashi haqidagi bolshevik prinsipiga amal qilishi emas, balki uning Oʻrta Osiyoda panturkistik harakatga qarama-qarshi vazn yaratishga qaratilgan hisob-kitoblari edi. Shuningdek, bir vaqtning oʻzida eski davlatchilikning anʼanalari va hududiy tuzilishini buzish maqsadi boʻlgan. Yangi tashkil etilgan respublikalarda maʼmuriy okruglarning toʻliq qayta tashkil etilishi shu bilan izohlandi. Shunday qilib, ilgari Qoʻqon xonligi, soʻngra Turkiston general-gubernatorligi tarkibida boʻlgan Qurama okrugining sobiq Ural volosti uning gʻarbiy qismi (Dalverzinskiy, Kalgansir va Chanoq ovullari) Oʻzbekiston va Tojikiston oʻrtasida

bo'lindi. Nav, G'olakandoz va Xo'jand tumanining bir qismi Qirg'izistonga qo'shib olindi. Zafarobod viloyati dastlab O'zbekistonga o'tkazilgan, keyin esa Tojikiston tarkibiga kiritilgan bo'lsa-da, tarixan O'zbekistonga o'tgan Och dasht bilan birgalikda yagona etnik-madaniy rayonni tashkil etgan bo'lib, uning keng yaylovlaridan turkiy chorvadorlar faol foydalangan, ularning avlodlari hozirda 2000-yilda O'zbekistonga o'tgan. Natijada, uning aholisida tojiklar va o'zbeklarning ulushi taxminan teng bo'lib chiqdi. 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining turli hududlarida aholining etnik tarkibi turlicha bo'lgan. 1924- yildagi milliy-hududiy chegaralanishdan keyin mintaqada sovet davlatchiligining shakllanishi juda qiyin kechdi. Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi rahbariyatida tojiklar salmog'i yuqori bo'lgan; ammo Moskvaning muxtoriyat tuzish to'g'risidagi ko'rsatmasini qabul qilib, u yangi tuzilmaga faqat Sharqiy Buxoroni va Zaravshon vodiysining bir xilda qoloq, alohida hududlarini berishga, yanada rivojlanganlari — Buxoro, Samarqand, Xo'jand, Denov, Termizni O'zbekiston SSR o'z tarkibida saqlab qolishga harakat qildi. Shu tariqa Sovet O'zbekistoni Qo'qon xonligi va ko'p jihatdan Buxoro amirligining vorisi bo'ldi. Bunda Fayzullo Xo'jaev, A.Rahimboyev, A.Xojiboyev, A.Muhiddinov va boshqalar eski davlatchilik qoliplariga amal qildilar, unga ko'ra birlik til va etnik emas, balki hududiy, iqtisodiy va sivilizatsiyaviy edi. Tojik Respublikaning vujudga kelishi uchun katta narx to'lash kerak edi: unga asosiy siyosiy va madaniy markazlar, Buxoro va Samarqand kirmadi. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida chegara nizolari boshlandi. Sovet imperiyasi doirasida bu muammolarning barchasini bartaraf etish yoki bo'g'ish mumkin edi, ammo 1991- yil avgustidagi to'ntarishdan so'ng ular o'zlarining to'liq salohiyatiga ega bo'lishdi. 1991-yil 9-sentabrda Tojikiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi «Tojikiston SSR suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» va «Tojikiston Respublikasining davlat mustaqilligi deklaratsiyasi to'g'risida» qarorlar qabul qildi. Va deyarli darhol Tojikiston mustaqil yashashga tayyor emasligi ma'lum bo'ldi [4].

Mustaqillik e'lon qilingan vaqtgacha tojik jamiyatida milliy g'oya shakllanmagan edi. Qolaversa, Sovet hokimiyati yillarida milliy elita hech qachon paydo bo'lmagan. Sovet Tojikistonidagi hukmron nomenklatura asosan Leninoboddan jalb qilingan va o'zining mintaqaviy xususiyatini, mahalliy siyosiy madaniyatini va eski davlatchilikka yo'naltirilganligini saqlab qolgan. Ittifoq davrida Ittifoq ma'muriyati va respublika aholisi o'rtasida vositachilik rolini o'ynagan; SSSR parchalanib ketgach, u qaytadan to'planib, davlat mulkini bo'lib, kapitalni "o'z" mintaqasiga, ya'ni Leninobod viloyatiga o'tkaza boshladi va asta-sekin siyosiy elitadan iqtisodiy elitaga aylantira boshladi. Hozirgi kunda Tojikiston iqtisodiy elitasining asosiy

tayanchini shimolliklar tashkil etadi, poytaxtdagi siyosiy hokimiyat esa mintaqalar o'rtasida doimiy keskinlikni saqlaydigan Ko'lob-Hisor guruhiga tegishli. Shu bilan birga, hokimiyatga yangi odamlar kelgan Dushanbedan farqli o'laroq, Leninobod viloyatida hamon eski elita hukmronlik qilmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, elita tarkibida xuddi Markaziy va Janubiy Tojikistondagidek sezilarli o'zgarishlar bu yerda sodir bo'lmagan. "Tojikiston ASSR rahbariyati O'zbekiston SSRga hududiy da'volar bilan chiqdi, tojik aholisi ko'p bo'lgan yerlar – Xo'jand, Buxoro, Samarqand, Denov, Sariosiyo va boshqalarga da'vo qildi. Bular yuqorida tilga olingan Muhiddinov va Xojiboyev, shuningdek, Nusratullo Maxsum, Shirinsho Shotemur va boshqa arboblardan ya'ni O'zbekiston SSR da hukmron kurashda yengilgan sobiq rahbarlar tashabbusidan iborat edi. Ular O'zbekiston tojiklarining ushbu respublikada olib borilayotgan turklashtirish siyosatidan ochiqdan-ochiq noroziligidan foydalanganlar. 1929-yil bahorida uzoq davom etgan muzokaralardan so'ng Xo'jand tumanini Tojikistonga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi va 1929-yil 15-sentabrda Tojikiston Respublikasi O'zbekiston SSR tarkibidan ajralib, ittifoq maqomini oldi [8].

Ma'muriy-hududiy chegaralanish borasidagi bahslarning eng ko'zga tashlanadigan jihati unda tojiklarning ishtirok etmagani edi[4]. 1924-yil may oyida Sredazbyuro chegaralanishni tatbiq etishga kirishganda mintaqada o'z hududiga ega deb tan olingan barcha millatlar uchun milliy qo'mitalar (подкомиссии) tuzgan. Lekin ularning orasida tojik qo'mitasi yo'q edi. Bu masalada o'z qurultoyini o'tkazish niyati bo'lsa, tojik birodarlarga amaliy yordam berish Abdulla Rahimboyevga yuklandi. Tojik avtonom oblastini tashkil etish bo'yicha ilk taklifga milliy-hududiy chegaralanish jarayonida o'zgartirishlar deyarli kiritilmadi. Jarayon deyarli tugab qolay deganda yagona o'zgartirish markazdan kiritildi: Butunittifoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Tojikistonni avtonom oblastdan avtonom respublika darajasiga ko'tardi va Pomir tumanini avtonom oblast sifatida qo'shib berdi. 1924-yilda tashkil etilgan Tojikistonning katta qismi qishloqlardan iborat edi. Har dushanba kuni bozor bo'lib o'tadigan kichik qishloq poytaxtiga aylandi. Yangi hukumat mustamlaka ekspeditsiyalarni eslatib yuboradigan sayohatdan so'ng Dushanbega kelgach yangi respublika e'lon qilindi. Sovetlarning Birinchi Kongressi faqatgina 1926-yil dekabrda yig'ildi, ungacha Tojikiston favqulodda vakolatlarga ega revkom tomonidan boshqarilgan. Tojikiston aslida Sharqiy Buxoro sifatida qaytalandi. Agar O'zbekiston Buxoro asosida tuziladigan bo'lsa, unda Tojikiston O'zbekistonda istalmagan hudud sifatida vujudga kelgan. Tojikistonning vujudga kelishi O'zbekiston yaratilishining orqa tomoni edi. O'zbekiston O'rta Osiyoda Temuriylar davlatchiligining merosxo'ri bo'lsa, Tojikiston mang'it sulolasining eng kam bo'ysundirilgan qismidan boshqa narsani aks ettirmasdi. Tojikistonning yaratilishi o'zbek rahbariyati tomonidan amalga oshirilgan xatna amaliyoti edi. Tojikistonning vujudga

kelishi Muhiddinov va Fayzulla Xo'jayev o'rtasida azaldan davom etayotgan nizoga barham berdi. Fayzulla Xo'jayev yangi tashkil etilgan O'zbekiston kompartiyasi Tashkiliy byurosidagi a'zolidan foydalanib Muhiddinovni tojik revkomiga biriktirishga erishdi. Buxoro istilohida bu Sharqiy Buxoroga ma'muriy surgun edi. Siyosiy mag'lubiyat nihoyat Muhiddinovdan tojikni yasadi[1].

Lekin, bora-bora "tojik" arboblari O'zbekiston uchun hududiy da'volar talabi bilan chiqishgan. 1928-yilda A.Muhiddinov masalani mutlaqo boshqa darajaga olib chiqdi. U nafaqat Tojikistonning O'zbekistondan ajratilishini, qo'shimchasiga Samarqand va Buxoro ham Tojikistonga berilishini talab qildi. Muhiddinovning fikricha, Buxoro aholisi azaldan forsiyzabon, demak, tojik. Lekin panturkizm va panislomizm tarafdorlari bo'lmish yosh buxoroliklar tojiklarni tan olmay, ularni zo'rlik bilan o'zbeklashtirishga urindi[1]. Muhiddinovning fikricha, vaziyatning mantiqiy yechimi Buxoroning Tojikistonga berilishidir. Ta'kidlash joizki, tojik faollari boshidan partiyaning panislomizm va panturkizmga nisbatan shubhasidan foydalanib o'zbek siyosatini tanqid qilgan, bu siyosatni Kommunistik partiya, Sovet davlati va Oktabr inqilobi uchun tahdid deb tarflashga uringan. Yana bir faol Shirinshoh Shohtemir memorandumida alohida urg'u berishicha, "bunday ahvol bugungi o'zbek ziyoli va ulamlarining panturkiy, panislomiy va pano'zbek kayfiyatiga to'liq mos tushadi". Raqiblarini partiya chizig'idan chiqib ketishda ayblash orqali tojik faollari o'zlarini haqiqiy sovet faoli ekaniga urg'u berishgandi. Kompartiyaning 1920-yillardagi asosiy olabo'jisi bo'lmish panturkizm, panislomizm va milliy shovinizm o'zbek siyosatini ayblash hozirgacha tojik shikoyatlarining asosiy qismini tashkil etadi. Tojik milliy masalasi Muhiddinovning Fayzulla Xo'jayevga nisbatan firqaviy adovati bilan chambarchas bog'liq edi deb bimalol aytish mumkin. U uchun Buxoroga qaytishning yagona yo'li o'zi badarg'a qilingan respublikaga ushbu shaharni qo'shib olish edi[1].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 1924 yilda SSSR hukumati tomonidan amalga oshirilgan xalqlarning til birligi bo'yicha Milliy-hududiy chegaralanish siyosati natijasida Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekiston SSR va uning tarkibiga kiruvchi Tojikiston ASSR (1929 yilda O'zbekiston SSR tarkibidan Tojikiston ASSR ajralib chiqadi va Tojikiston SSR nomi ostida SSSR tarkibiga kiritiladi.) respublikalari tashkil etildi. Mamlakatlar o'rtasidagi hududiy nizolar ikki mamlakat diplomatik munosabatlari va savdo-iqtisodiy munosabatlarida o'zining aks ta'sirini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adib Xolid. (2022) O'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. Toshkent. 17-303-314 b.
2. Gerhard Doerfer. (1992) Central Asia, XIV. Turkish-Iranian Language Contacts // Encyclopaedia Iranica. - London, T.5. - P. 226 - 235
3. Scott Levi. (2007) Turks and Tajiks in Central Asian History // Everyday life in Central Asia: Past and Present, ed. Jeff Sahadeo and Russell Zanca. – Bloomington. - P. 15 – 31.
4. Haugen A. (2003) The Establishment of National Republics in Soviet Central Asia. London. -P. 28
5. А. И. Кошелева, П. А. (1948) Васильев. Административно-территориальное деление Таджикистана (исторический очерк). Сталинабад. С – 48.
6. Бергне, Пол (2007) Рождение Таджикистана: национальная идентичность и истоки республики, IB Taurus & Co Ltd. С – 39-40
7. Саидов З. (2010) Актуальные аспекты внешнеполитического механизма и международной деятельности Республики Таджикистан. — Контраст. С - 74.
8. Саъдиев Ш. С. (2002) Таджикистан: путь к миру и согласию. — Душанбе.
9. Раҳим Масов. (1991) История неуклюжего разграничения, Irfon Publ. Дом, Душанбе. С - 55.
10. Зафар Саидов, Абдунаби Сабуrow. (2005) Таджикистан на рубеже тысячелетий: реализация национальных интересов. С - 194.
11. Шушкова М.Е. (2018) Национально-территориальное размежевание Средней Азии: взгляд историков Таджикистана на проблему // Советский проект. 1917-1930-е гг.: этапы и механизмы реализации: сборник научных трудов. Екатеринбург. С - 23.
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/hudzhand-mezhdu-ferganoy-i-tadzhikistanom>